

AMALIY SAN'AT TURLARIDA PARS PRO TOTO TUSHUNCHASI (Kulolchilik va kashtachilik naqsh turlari talqinida)

Xushvaqov Shoxzod

E-mail: shakhzodbekkhushvakov007@gmail.com

Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy rassomlik va dizayn instituti

San'atshunoslik va muzeyshunoslik fakulteti San'atshunoslik

(tasviriy va amaliy san'at) yo'nalishi

4-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek xalq amaliy san'atida "Pars pro toto" tushunchaning bir qismi to'liqligini anglatadigan nutq figurasi tasnifi borasidagi fikrlar bayon etilgan. Amaliy san'at turlarini bir-biridan ajratish mushkul, chunki bu san'at turi yaxlitligicha butunlikni tashkil qiladi. Shu o'rinda ulardagi naqsh turlari ham shaklan va mazmunan bog'liqlikda shakllanib kelmoqda. Kulolchilik va kashtachilikda foydalaniladigan naqshlar ham har bir buyumda ma'lum bir vazifani bajargan. Ya'ni o'z o'rnida o'simliksimon, zoomorfik yoki antropomorfik mazmuni shakllantirgan. Bu naqshlar mazmunan o'z o'rnida Pars pro toto tushunchasiga bevosita bog'liq. Quyida ushbu fikrlarning asoslari yuzasidagi xulosalar bilan tanishamiz.

Kalit so'zlar: Pars pro toto, amaliy san'at, kulolchilik, kashtachilik, islmiy, grix, naqsh, suv, yer, fazo, o'simliksimon, zoomorf, antrpomorf.

АННОТАЦИЯ

В статье описывается идея отнесения речевого образа в узбекском народном прикладном искусстве к «Pars pro toto» (лат. - часть целого) - это объект, идеи о классификации речевого образа, означающего завершенность. Места или части концепта. Трудно различить разные виды прикладного искусства, потому что этот вид искусства образует единое целое, при этом типы узоров в них также формируются в зависимости от формы узоры, используемые в керамике и вышивке, также выполняли определенную функцию в каждом изделии, то есть в некоторых случаях формировали растительное, зооморфное или антропоморфное содержание. Эти узоры по своему содержанию напрямую

связаны с концепцией Pars pro toto. Ниже мы представляем выводы на поверхности основ этих идей.

Ключевые слова: Парс про тото, прикладное искусство, керамика, вышивка, грих, узор, вода, земля, космос, растительный, зооморфный, антропоморфный.

ABSTRACT


This article describes the idea of classifying a speech figure in Uzbek folk applied art as "Pars pro toto" (Latin - part of the whole) - this object, ideas about the classification of a speech figure, which signifies the completeness of a place or part of a concept. It is difficult to distinguish between different types of applied art, because this type of art forms whole as a whole. At the same time, the types of patterns in them are also formed depending on the form and content. The patterns used in pottery and embroidery also served a specific function in each piece. That is, in some cases formed a vegetative, zoomorphic or anthropomorphic content. These patterns are directly related to the concept of Pars pro toto in their content. Below we present the conclusions on the surface of the foundations of these ideas.

Key words: Pars pro toto, applied arts, ceramics, embroidery, grix, pattern, water, earth, space, vegetable, zoomorphic, anthropomorphic.

O‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixida amaliy san’atning o‘rni beqiyos va bir qancha turlarga ega holda shakllanib, rivojlanib kelmoqda. Amaliy san’atning har bir turi o‘z o‘rnida rango-rang va ulardagi naqshlar talqini o‘zgacha ma’no kasb etadi. Xalq amaliy san’ati tarixi uzoq o‘tmishga ega. Arxeologik qazishmalar natijasida shu ma’lum bo‘‘adiki insoniyat tosh asridanoq buyum yasash, ma’lum shaklga keltirish va unga badiiy ishlov berishdan foydalana boshlagan. Bu jarayon bugungi kunga qadar takomillashib, o‘z qiymatini yanada oshirib, xalq ijtimoiy hayotida katta ahamiyat kasb etmoqda. Zero amaliy san’at ibtidoiy davridayoq o‘zining vazifasini belgilab olgan tur sifatida shakllangan, ya’ni kundalik turmush tarzining bir qismi sifatida. Bugungi rivojlanayotgan davrda ham o‘zining qadimiy an’analari bilan barchani birdek qiziqтира oluvchi san’at turidir. Amaliy san’at buyumlarida aks etgan naqsh turlari, shakllar bularning barchasi o‘zining tarixi, mazmuni, talqini va albatta vazifasiga ega. O‘rganilishlar natijasi o‘laroq amaliy san’at naqshlarining shakllanishi ma’lum davrlarda diniy qarashlar bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, ma’lum davrda xalq turmush tarzi, mahalliy urf-datlar bilan sintezlashuvini kuzatamiz.

Amaliy bezak san'atida foydalaniladigan naqsh turlarining talqinini "Pars pro toto" tushunchasi orqali yanada kengroq mazmunini ochib berish mumkin. "Pars pro toto" (lot. – butunning bir qismi) – bu obyekt, joy yoki tushunchaning bir qismi to'liqligini anglatadigan nutq figurasi²⁵. Bu qismlarni sanab chiqish orqali bir butunga ishora qiladi, metonimiya yoki sinekdoxa kabi grammatik turlar ma'lum ma'noda til kontekstida pars pro toto kabi vazifani amalga oshiradi. Shunday ekan grammatikada, pars pro toto narsa, uning bir qismi yoki cheklangan xarakteristikasi bilan nomlanishini anglatadi. Demak, "Pars pro toto" bu qismlar orqali butunni tavsiflaydi. Shu o'rinda ushbu terminga teskari ma'no sifatida "Totum pro parte" (lot. – qism uchun butun) – bu tushuncha ma'lum xususiyatni anglatishi shart emas ya'ni butun orqali qismga murojaat qiladi. Nemischada Totum pro parte – "Geshtalt" atamasi orqali tavsiflanadi. Bu alohida elementlarning yig'indisi sifatida emas, balki bir butun sifatida qabul qilinadigan strukturadir. Nemischa talqinda: "Körper, Verkörperung, körperliche Erscheinung eines Wesens – "borliqning tuzilishi, mujassamlanishi, ko'rinishi" demakdir.

Pars pro toto kesimida amaliy bezak san'atida foydalaniladigan naqsh turlarini ma'lum ma'noda uch qatlam: suv, yer, fazo kabi turlarga ajratgan holda talqin qilish mumkin.



Chingiz Axmarov - "Ulug'bek yulduzi" filmi uchun eskiz (rejissyor L.Fayziyev). 1962-1963-yillar.²⁶

²⁵ Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона → Словник: Оуэн — Патент о поединках. Источник: т. XXII а (1897): Оуэн — Патент о поединках, с. 884 (скан).

²⁶ Издание сопровождает персональную выставку Ч.Г. Ахмарова в «Галеев-Галерее», Москва, Большой Козихинский переулок, 19/6, строение 1. Май - Июль 2010. Текст Нигоры Ахмедовой. Общая редакция Ильдара Галеева. стр.254.

Bilamizki, qadimgi insonlar ongida yer shari tuzulishi haqida turlicha tasavvurlar mavjud bo‘lgan. Fan jihatdan biroz chekinib, inson ko‘zi bilan ko‘rganda haqiqatdan ham tabiat shunday tuzilgan. Suv tabiati, yer va fazo. Insonni shu uch birlik olam qamrab turgan. Bu qadim madaniyatlarining har birida o‘zgacha talqinga ega holda shakllangan, yevropada, sharqda va xususan islom olamida. Shu ma’noda amaliy san’atda qo‘llaniluvchi ko‘plab naqsh turlari mana shu olamning bir qismi demakdir. U mana shu uch qatlamni har birida uchraydi va bu naqsh motivlari olamning “pars pro toto” sidir. Ya’nikim tabiatning bir bo‘lagi sifatida xizmat qiladi shu bilan birga insonlar ongidagi e’tiqod tushunchasini ham ifodalaydi.

Amaliy san’at turlarini bir-biridan ajratish mushkul, chunki bu san’at turi yaxlitligicha butunlikni tashkil qiladi. Shu o‘rinda ulardagi naqsh turlari ham shaklan va mazmunan bog‘liqlikda shakllanib kelgan. Kulolchilik va kashtachilikda ham ana shunday bir-biriga bog‘liq naqsh turlarini uchratamiz va albatta bu turlar bir vazifani buyumlarda aks ettiradi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek uch qatlamning biri, suv qatlami naqshlari mavjud bo‘lib, ular nomlanish va ko‘rinish jihatidan o‘xshashligini kuzatishimiz mumkin.

Bu naqsh turlari umumiy ma’noda oba (suv) deb nomlanadi. Oba motivlari sirasiga kiruvchi naqsh turlari kulolchilikda yoki kashtachilikda asosan buyumlarning chekka qismlarida turli o‘simliksimon naqsh ko‘rinishida yoki kulolchilikda chiziqlar orqali talqin etiladi. Asosan kashtachilikda kompozitsiya tuzulishi bilan bu naqsh turi bevosita bog‘liqdir. Quyida takiyapo‘shda chekka qismlarida o‘simliksimon naqsh orqali oba motivini, undan keyingi qismida islmiy naqshlar orqali yer va markazga tomon fazo ramzi bo‘lgan naqshlar tizimi orqali yaxlit kompozitsiya hosil qilinadi.



Oba naqshi islmiy ko‘rinishda.



Yer qatlami naqshlari.



Fazo qatlami naqshlari.



Takiyapo'sh. Nurota. 1892-yil.

Kulolchilikda esa oba motivi suv to'liqini ko'rinishida aks etadi u ham buyumning chekka yoki ichki friz qismidan joy olishi mumkin. O'z o'rnida ikki amaliy san'at turida ham oba motivlari baraka, to'kin-sochinlik ramzi sifatida talqin qilinadi. Pars pro toto kesimida esa bu naqsh olamning bir qismini namoyon qiladi.



Odilbek Matchanov. Bodiya(fragment – oba motivi). Xorazm.

Shuningdek, oba motivlar sirasiga kiruvchi yana bir naqsh zuluk ma'lum adabiyotlarda S shaklidagi naqshlar deb ham qo'llaniladi. Zuluk (qora suv qurti) suv jonzotidan qiyos olingan holda oba motivini tashkil qiladi. Shaklan va talqin jihatdan to'laqonli suv qatlami qismiga mos klead. S shaklidagi motivlar buyumlarda diametr bo'ylab joylashadi. Kashtachilikda aynan e'tibor qaratsak, ikki xil rangda foydalanilgan turlarini ham uchratamiz, Nurota kashtachiligi bunga misol bo'la oladi. Zuluk naqshi ikki xil rangda (sariq va qizil yoki pushti va qizil) naqshlanishi oz'iga xos mazmuniga ega. Ko'pincha ikkita rangning kombinatsiyasi qora va oq, xalq madaniyatida apotropik ma'noga ega va ala kurt - rang-barang qurt deb nomlangan. Ushbu tasvirning genezisi bilan bog'liq edi. Ikkita ilon - qora va oq, yaxshilik va yomonlikni, zardushtiylik an'anasida dunyoning ikki tomonlama birligini ifodalaydi. Vaqt o'tishi bilan bir-biriga bog'langan ikkita zuluk turli xil ranglar, turli xil motivlarni talisman ma'nosiga ega bo'lgan ikki tusli ranglarga almashtirdi. Shunday qilib, ikki rangli o'ralgan trikotaj yoki birgalikda tuya yoki qo'zichoq yungidan to'qilgan shnur jun - aladja (rang-barang ip) beshiklar atrofida chaqaloqlarning hujumdan himoya qilgan. Qora va oq tor chiziqlar "ilonlarga taqlid qilish" deb hisoblangan, chiziqli ikki

xil rang berish sehrni kuchaytirdi deya ishonilgan.²⁷ Bir qancha izlanishlar shuni ko'rsatadiki S shaklidagi naqshlar O'rta Osiyo xalqlari san'atida keng tarqalgan va foydalanilgan. Stiliz qilingan shakli aynan qabilalarning totemi sifatida talqin etilgan.



Tog'ora palak. Toshkent. XX asr boshlari. Zuluk naqshi.

Zuluk naqshi bilan mutanosib holda mazmunan bir xil talqinga ega ilon izi naqshi ham mavjud. Bu naqsh kashtachilikda kulolchilikga nisbatan shaklan boshqacha ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ilon izi naqshi kulolchilikda buyumlarining chekka qismida chizma yoki glazur bilan qo'llaniladi. Deyarli har bir kulolchilik buyumida uchramiz. Kashtachilikda esa ikki xil rangda aks ettirilishi zuluk naqshi bilan bir mazmunga ega ekanligini anglatadi. Bevosita oba motivlari ham shaklan, ham mazmunan pars pro toto tushunchasini shakllantiradi. Ilon izi bu nom jihatdan ilonnig izi ya'ni jonzotning o'zi mavjud emas, qism orqali butunlikni anglatmoqda. Mazmunan jihatdan ham totem vazifasiga ko'ra yondashuvda u bir qabilaning e'tiqod ramzi, bir qismini mujassam etadi. O'z o'rnida amaliy san'at buyumlaridagi vazifasi jihatidanam ham obaning pars pro totosidir. Suv qatlamining naqsh turlari aynan shu shaklda mazmun mohiyatga egadir.

Amaliy san'atning yuqoridagi ikki turida keng qo'llaniladigan naqsh turlari yer qatlamida ham ko'plab uchramiz. Nomlanish va talqini bilan bu naqsh turlari bir-biridan ajaraladi.

²⁷ Гюль Э. Сады небесные и сады земные. Вышивка Узбекистана: скрытый смысл сакральных текстов. Москва, издательство фонда Марджани, 2013 г. Стр.92.

Qo'chqorak – “qo'chqor shoxi” naqshi ko'chmanchi qabilalarga xos naqsh turi. Hayvonlarga va tuyalarga kult, ma'no protitipi sifatida berilgan. Aynan kultga bog'liqligi tojikcha “gusfand” (qo'y) degan ma'noni anglatadi. Sipand so'zi lug'atda o'simlik ma'nosini bildirishi va ushbu o'simlikni quritilganini (isiriq - hazarsipand) O'rta Osiyo hududida jin-ajina va har xil kasalliklardan forig' qilish maqsadida foydalanilgan. Shu 'o'z ma'nosidan kelib chiqib o'zining kult ma'nosini tavsiflaydi. Shuningdek, qadimgi xalqlarda so'yilgan qo'chqor boshini hovliga yoki ma'lum joyga osib qo'yish ham yomon ko'zlardan asrashni anglatgan. Masalan, Xorazm hududida qo'chqor shoxi yomon nazar unga tushib, kuchini yo'qotishni anglatgani bois hovliga osib qo'yilgan 28. Bu odat yaqin yaqingacha ham viloyatlarimizda saqlanib kelgan. Qo'chqorak naqshi va ushbu odat talqini dinga ham ko'chib muqaddas tushunchaga aylanishini ko'rishimiz mumkin bo'ladi ya'ni islom dinidagi qurbonlik tushunchasi bilan bog'liq. Qurbonlik - xudoga yaqinlashish va uning rahm-shafqatiga sazovor bo'lish uchun jonliq so'yish. Qurbonlik odati qadim zamonlarda ko'p xalqlar va qabilalarda bor edi. Islomdan ilgari arablarda qullarni, o'z farzandlarini qurbon qilish odati bo'lgan. Siyrat Zam zam bulog'i suvini qayta qazib chiqarishda Muhammad (s.a.v.) ning bobosi Abdulmuttalib quduqni qazish mobaynida o'z o'g'illaridan birini qurbonlikka atagani haqida rivoyat saqlanib qolgan. 29Davrlar o'tishi bilan inson o'rniga hayvonni qurbon qilish odatga aylangan.

Bibliya Borliq kitobi, 22-bob, 1-13-bandlaridagi rivoyatga ko'ra, Avraam (Ibrohim) o'zining chin e'tiqodini isbotlash uchun o'z o'g'li Isaak (Ishoq)ni qurbon qilishga qaror qilganda xudo uni to'xtatib, bolaning o'rniga qo'chqorni qurbonlikka buyurgan. Qur'oni Karimning 37-Soffat surasi, 102-107-oyatlarida Ibrohim Alayhissalom (Avraam) tushida o'z o'g'li Ismoilni so'yayotganini ko'radi va o'g'liga bu xabarni aytganda o'g'li o'zini qurbonlik qilish uchun rozi bo'ladi. Ibrohim ikkinchi o'g'li Ismoilni Qurbonlik qilishga chog'lanadi. Shunda Alloh bolaning o'rniga qo'chqorni tushiradi. Islom dinida Qurbonlik haj marosimining qat'iy va majburiy qismlaridan biriga aylangan. Hajda ishtirok etmagan musulmonlar qurbon hayiti kuni imkoniyatiga qarab qurbonlik qilishi lozim hisoblanadi. Qurbonlik uchun so'yiladigan hayvon — qo'y, mol, tuya. Bir qo'yni bir kishi, qora-mol, tuyani esa bir kishidan to yetti kishigacha bir bo'lib qurbonlik qilishi mumkinligi belgilangan. Qo'chqorak naqshining o'z o'rnida ikki talqinda ko'rishimiz mumkin ya'ni xalq turmush tarzining qatlamlarida va diniy jihatdan yondashuvda. Qo'chqorak naqshi

28 О. А. СУХАРЕВА - ОРНАМЕНТ ДЕКОРАТИВНЫХ ВЫШИВОК САМАРКАНДА И ЕГО СВЯЗЬ С НАРОДНЫМИ ПРЕДСТАВЛЕНИЯМИ И ВЕРОВАНИЯМИ [ВТОРАЯ ПОЛОВИНА XIX НАЧАЛО XX В.]

29Ахмад Лутфий Қозончи – Саодат асри киссалари I китоб. Самарқанд:”Имом Бухорий халқаро маркази” нашриёти, 2020. 77-92-бет.

kulochilikda asosan friz qismlarida foydalaniladi, shakl jihatidan qo‘chqorning qayrilgan shoxini yodga soladi. Ayrim kompozitsiyaviy tuzilgan tasvirlarda to‘laqonli buyumning markazida yoki umumiy naqsh kompozitsiyasida uchratishimiz ham mumkin. Kashtachilikda ham huddi shunday yo‘nalishda aylana bo‘ylab, iroqi choklarda geometrik yoki assimetrik joylashuvda yoki ikki rangda qochqorak naqshining tasavirlardagi ham namunalar mavjud. Ikki xil ranglar kombinatsiyasi yuqoridagi zuluk naqshi kabi mazmun mohiyatda tumor vazifasini bajarishi ham mumkin.

Hozirgi kunda kinematografiya sohasida zamonaviy kinorassomlar qadimgi an‘analarga murojaat qilgan holda ushbu qo‘chqorak kabi naqsh turlaridan sahna va kino liboslarida foydalanishini kuzatamiz.




Odilbek Matchanov. Bodiya (fragment – qo‘chqorak naqshi). Xorazm.



So‘zana. Surxondaryo (qo‘chqorak naqshi). Sherobod t. 1970-y.


Gultojixo‘roz naqshi kashtachilikda islamiy - gul toji xo‘roz o‘simligi naqshi ko‘rinishida foydalaniladi. Chunki ushbu gultojixo‘roz o‘simligi aynan xo‘roz tojidan qiyos qilib olingan holda nom berilgan va shu ma‘noda kashtachilikda o‘z aksini topgan. Toji xo‘roz naqsh mahalliy an‘analarga xos holda shakllangan naqsh ko‘rinishlar hisoblanadi.



Takiyapo'sh. Nurota. 1912-yil.
(fragment – toji xo'roz naqshi)

To'petti 30– daraxtdan (bog'dan) tushgan olma naqsh kompozitsiyasi. Asosan Shahrizabz kulolchiligida uchratishimiz mumkin bo'ladi. Ushbu naqsh talqini qadimiy va qiziq tarixi bilan ahamiyatlidir. To'petti naqshi sivilizatsiyaning eng keng tarqalgan ramzlaridan biri bu uchburchakda bog'langan uchta aylana yoki uchta yarim shar bo'lgan uchlik belgisi deb ataladi. Ushbu belgi qadimgi Misr va Yunonistondan tortib to klassik Yaponiyagacha mavjud. Rassom va mutafakkir Nikolay Rerix o'z vaqtida ushbu ramzga katta e'tibor berib o'rgangan. Turli xil madaniyatlarda va urf-odatlarda keng tarqalganligidan ajablanib, Rerix ushbu ramzni “Tinchlik ramzi” deb atadi va quyidagicha fikr bildiradi: “Ushbu ramz juda qadimiy va butun dunyoda uchraydi, shuning uchun uni hech qanday mazhab, tashkilot, din yoki urf-odatlar, shaxsiy yoki guruhlar manfaati bilan cheklab bo'lmaydi. U ongning barcha bosqichlarida evolyutsiyasini namoyish etadi.” Shuningdek, u ushbu belgi ramziy ma'nosining noaniqligini ta'kidlaydi: “Butparast madaniyatlarda, ular mo'g'ullar, Kavkaz xalqlari, skiflar, slavyanlar yoki fin-ugor xalqlari bo'lsin, belgining ramziy ma'nosi birma-bir tushuntirishga imkon bermaydi. Bir narsa aniq: uchta aylana shunchaki bezak motivi emas, ular muqaddas belgi bo'lib, endi uni aniqlash mumkin emas.” Aynan yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda amaliy san'atda bugungi kunda qo'llanib kelinayotgan ushbu uch aylana ya'ni to'petti naqshi bizning hudud jihatdan kelib chiqqan holda mahalliylik nom va ma'no kasb eta olgan deyishimiz mumkin. To'petti bu – daraxtdan tushgan olma va aynan shu mazmunda amaliy san'atda foydalaniladi. Uch olma sodda kompozitsiya orqali butunlik - bog' pars pro toto gacha ishora qilishini kuzatashimiz mumkin.

30 М.К.Рахимов – Художественная керамика Узбекистана. ИЗДАТЕЛЬСТВО АКАДЕМИИ НАУК УЗБЕКСКОЙ ССР. ТАШКЕНТ 1961
табл. XXX, 8.



To'petti naqshi





Usta Rustamov. Lagan. Shahrisabz. 1959-y.

Bodom guli naqshi - o'zbek xalq amaliy va tasviriy san'atda keng foydalanib kelinadigan naqsh turlaridan hisoblanadi. Bodom va qalampir ham tumor vazifasida qo'llaniladi ya'ni tog'da o'suvchi achchiq bodom, qalampir yomon ko'zlardan asrash talqinidir. Amaliy san'atda qo'llanilganda bodom o'simligi tabiatining bir bo'lagi sifatida talqin qilishimiz va fazoda tasavvur qilganda esa bir bog'ni ya'ni jannat bog'ining, bodomgul bilan talqin qilamiz va shu orqali pars pro toto tushunchasini o'zida namoyon qiladi. Jannat bog'i butunlik, bodom guli uning bir qismi hisoblanadi. Ya'ni jannatning bir bo'lagi. Pars pro toto kesimida bodom gul naqshi kashtachilikda o'simlik dunyosining bir bo'lagi sifatida foydalaniladi. Qalampir gul naqshi ham shaklan va mazmun jihatdan bodom gul naqshi bilan bir xil mohiyat kasb etadi. O.A. Suxerovning fikriga ko'ra "qalampir gul" naqshli tasvirlangan motivlarni ko'p holda hunarmandlar – "bodom gul" deb atashadi. Shuningdek, bugungi amaliy san'at buyumlarida badiiy uslubiy nuqtai nazardan naqshlarning rivojlanish evolyutsiyasini ya'ni semantikadan bezakka, mazmundan naqshga, realizmdan estetikaga o'zgarish evolyutsiyasini guvohi bo'lamiz. Aynan bugungi kun amaliy san'at asarlarida naqsh turlarining semantikasidan faqatgina bezak ko'rinishida yoki mazmun-mohiyatidan chekingan holda naqsh ko'rinishigina o'zida jamlab qolayotgani amaliy san'at turlarida muommoli masalalardan biridir.

Chashm (ko'z) naqshi amaliy san'atdagi keng ko'lamda foydalanuvchi yana bir naqsh turlaridan biridir. Kulolchilik turi bo'yicha e'tibor qaratsak, har bir o'zbek xalq amaliy san'atida maktab va markazlarida bu naqsh turlicha shaklda foydalaniladi va uchraydi. Mazmunan jihatdan bu naqsh ma'lum qadimgi davrlardan xalq turmush tarzida, urf-odatlarida saqlanib qolgan qarashlar bilan bog'liqligini sezishimiz mumkin. Chunki naqsh nomidan ma'lumki "chashm" ya'ni yomon ko'zlardan asrash mohiyatidan foydalaniladi. E'tiborga ahamiyatli tomoni amaliy san'atdagi naqshlar nomlanishi qaysi bir hudud yoki maktab bo'lmasin asosan tojikcha lug'atdagi so'zlar talqinidir. Chashm naqshining kulolchilik maktablarida turlicha ko'rinishlari bor masalan chashmi gov – sigir ko'zi, chashmi gusfand – qo'y ko'zi, chashmi zog',

chashmi bulbul, chashmi quyon, chashmi ushtur - tuya ko'zi kabilar. Kulolchilik buyumlarida ham asosan chekka qismlarida yoki yopiq buyumlarda katta shaklda, qopqoq qismlarida foydalaniladi. Bunday yondashuv buyumda saqlanayotgan mahsulotni, oziq-ovqatni yomon nazarlardan asrashni anglatadi. Chashm naqshining har bir turida pars pro toto tushunchasi hayvon yoki qush timsolida uning bir qismiga ishora qilishini ko'rishimiz mumkin.



K. Sharafov. Lagan (frag. – chashmi bulbul). Samarqand. 1982-y.



I. Komilov. Qanddon (frag. – chashmi bulbul). Rishton. 1980-y.

Tovus pati – naqshi. Bu naqsh yuqorida aytib o'tganimizdek uch jihat suv, yer va fazo qatlamlarida o'z o'rnida yer shuningdek, ilohiy fazoni anglatishi bilan ahamiyatlidir. Ushbu naqsh turini asosan G'ijduvon kulolchiligida Usta Narzullayevlar sulolasi kulolchilik buyumlarida uchramiz, asosan laganlarning markaziy qismida foydalaniladi. Tovus bu – borliq birligi go'zallik ramzidir. Amaliy san'atdagi tasvirlaridan kelib chiqqan holda izohlasak o'z mohiyatini yanada kengroq namoyon qiladi. Bu naqsh tasvirini quyida (Usta Ibodulla Narzullayev. Lagan. G'ijduvon.) badiiy ko'rinishda tovus patining ichki qismida tasvirlangan gul - jannat bog'ining bir


qismi va tovus - uning go‘zalligi talqini sifatida aksini ko‘rishimiz mumkin. Hayvonot va o‘simlik tabiati birgalikda ikki dunyoning birlashuvi va jannat bog‘ining tasvirini shakllantiradi. Pars pro toto kesimida aynan mana shu kabi mazmuniy tasnif o‘rin egallaydi. Tovus shuningdek xristianlik ikonalarida tasvirlarida Iso shaxsi bilan bog‘liqlikda, Hindiston hududida sevgi, visol ramzida talqin etiladi.



Usta Ibodulla Narzullayev. Lagan.
(frag. – tovus pati naqshi). G‘ijduvon.

Uch qatlamning so‘nggisi fazo qatlamida amaliy san‘at naqshlari ko‘plab namunalarini uchratamiz. Parpashsha yoki patpashsha (pashsha qanoti) naqshi fazo ramzi bo‘lib, u fazoga yaqinlikning mazmun sifatida talqin etiladi. Badiiy tasvirda charx urayotgan olamning, dunyoning bo‘lagi kabi namoyon bo‘ladi. Bu naqsh har bir amaliy san‘at maktablari an‘anasidan kelib chiqib, shakli va qo‘llanilishi o‘zgarib boradi. Buyumning friz qismida yoki markazda qo‘llanilganda parpashsha naqsh farqli ko‘rinishlarda aks etadi.

Fazo ramzini anglatuvchi naqshlardan yana biri kulolchilikdagi yulduzbosma yoki yulduzgul naqshi. Kulolchilikda yulduzbosma naqshini buyumlarning chekka va markaz qismlarida yaxlitligicha foydalaniladi. Fazoning bir qismi sifatida yaxlitlikka ishora qiladi. Moviy rangdagi lagan (Lagan- Rishton. XX asr boshi) atrofida bahoriy naqshlar va to‘pbarggul ko‘rinishida yulduz gul naqshni ko‘rishimiz mumkin. Yulduz gul naqshida ham yulduzdan qiyos olinga holda naqsh islimiy ko‘rinishda aks ettirilgan. Bu orqali ikki naqsh ya‘ni bahoriy – jannat bog‘ining bir bo‘lagi sifatida, yulduz gul - tasvirda ilohiy fazoni o‘zida aks ettirmoqda. Fazo qatlami naqshlaridagi ahamiyatli jihatlaridan, yuqoridagi parpashsha naqshining ayrim ko‘rinishlari va ushbu yulduzbosma naqsh shaklan o‘xshashligi va mazmun jihatdan yaqinligi bilan ham qiyoslanadi.



Sharafiddin Yusupov. Idish (frag. - parpashsha). Rishton. 1979-y.



S. Otajonov. Sut idish
(frag. – yulduzbosma naqshi). Xorazm.
1986-y.



Lagan (frag. – yulduz gul naqshi).
Rishton. XX asr boshi.

Fazo qatlami naqshlari kashtachilikda keng o‘ringa ega azaliy qadriyatlar asosida shakllanib, boyitilib kelinayotgan naqshlar kompozitsiyasidir. Kashtachilikdagi “chorshoxi yak mox (to‘rt shox bir oy)” uslubidagi oy tasvirini anglatuvchi va yulduzpalaklarda to‘laqonli aksini topgan va bevosita tog‘ridan tog‘ri fazoga murojaatni aks ettiradi. Shuningdek, tog‘ora palak, oypalaklarda ham xuddi shunday kompozitsiyadan foydalaniladi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek suv, yer, fazo ketma-ketligida kashta kompozitsiyasi hosil qilinsa markazda fazo ramzi tasvirlanadi.



Yulduzpalak. Toshkent. XIX asr oxiri XX asr boshi.

Pars pro toto deganda biz qaysi bir amaliy san'at turi bo'lmasin uning har bir qismida umumiy falsafiy tasavvurga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Olam to'g'risidagi va xalq turmush-tarzida ma'lum o'rin egallagan naqshlarni pars pro toto tushunchasi orqali uch: suv, yer, fazo qismlariga oid holda ajralishini kuzatamiz. Yuqorida keltirib o'tilgan naqshlarda turli o'simlik va zoomorfik tasvirlarini stilizatsiya shaklida amaliy san'atga ko'chishini kuzatsak, boshqa tomonlama falsafiy qarashlarini o'zida jamlaganligi bilan ahamiyatlidir. Naqsh turlarini islamiy va grix shakllarda sintezi alohida falsafa ruhini amaliy san'atda aks ettiradi. Bu falsafiy qarashlar hayotimizda nafaqat amaliy san'at uchun balki tariximizning turmush tarzini shakllantirishdagi roli bilan ahamiyat kasb etadi. Naqshlarning zamonaviy jarayonda xalq amaliy san'atida oddiy dekor namunasi emas, mazmuniy, falsafiy semantikasini anglagan holda qo'llash o'rinli deb bilaman. Bugungi kun rivojida uchbu motivlarning innovatsioan rivoji yoki vazifasi ham muhim. Shu ma'noda amaliy san'atining ma'lum turlari doirasida naqshlar tizimini birgina termin pars pro toto atrofida birlashuvi ushbu naqsh turlari haqida keng ma'lumot va tasnif manbasi bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

I. Asosiy adabiyotlar

I.1. Акбар Хакимов. Прикладное искусство Узбекистана: традиции и инновации. Представительство ЮНЕСКО в Узбекистане. Узбекистан, Ташкент 2013.

I.2. М.К.Рахимов – Художественная керамика Узбекистана. ИЗДАТЕЛЬСТВО АКАДЕМИИ НАУК УЗБЕКСКОЙ ССР. ТАШКЕНТ 1961.

I.3. O'zbekiston hunarmandchiligi durdonalari (kitob-albom), A.Hakimov Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2019. 348 b.

I.4. Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати: (Ўқув-методик қўлл.) (Таҳрир ҳаяти : М . Усмонов ва бошқ.; Расм. М.Турсунов ва Т. Маҳмудов ишлаган). — Т.:Меҳнат, 1991. 384 б.

II. Qo'shimcha adabiyotlar

II.1. А. Хакимов, V. Fayziyeva. O'zbekiston Davlat San'at Muzeyi noyob hazinasidan. O'zbekiston amaliy san'ati. ID "Baktria press". Tashkent 2014.

II.2. Гюль Э. Сады небесные и сады земные. Вышивка Узбекистана: скрытый смысл сакральных текстов. Москва, издательство фонда Марджани, 2013 г.

II.3. Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона. Источник: т. XXII а (1897): Оуэн — Патент о поединках.

II.4. Издание сопровождает персональную выставку Ч.Г. Ахмарова в «Галеев-Галерее», Москва, Большой Козихинский переулок,19/6, строение1. Май - Июль 2010. Текст **Нигоры Ахмедовой.** Общая редакция **Ильдара Галеева.**

II.5. О.А.СУХАРЕВА - ОРНАМЕНТ ДЕКОРАТИВНЫХ ВЫШИВОК САМАРКАНДА И ЕГО СВЯЗЬ С НАРОДНЫМИ ПРЕДСТАВЛЕНИЯМИ И ВЕРОВАНИЯМИ [ВТОРАЯ ПОЛОВИНА XIX НАЧАЛО XX в.).

II.6. Ahmad Lutfiy Qozonchi – Saodat asri qissalari I kitob. Samarqand: ”Imom Buxoriy xalqaro markazi” nashriyoti, 2020.

III. Albom, kataloglar

III.1. O‘zbekiston hunarmandchiligi durdonalari (kitob-albom), A.Xakimov Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. 348 b.